



BANKLARDA MOLİYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BANK KAPITALI RENTABELLIGINING AHAMIYATI

Djalilov G'ayrat

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0000-1540-3265

djalilovgayrat@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada banklarda moliyaviy barqarorlikning vujudga kelishi va uning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan va baholangan. Ushbu kategoriyaga nisbatan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari o'rganilgan va tizimlashtirilgan. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital yetarliligi va likvidlikni ta'minlash ko'rsatkichlariga nisbatan olimlarning qarashlari o'rganilgan. Tadqiqotlar asosida ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: banklar barqarorligi, kapital yetarliligi, likvidlik, to'lovga qobiliyatsizlik, aktivlar sifati, kapital va aktivlar rentabelligi.

ВАЖНОСТЬ РЕНТАБЕЛЬНОСТИ БАНКОВСКОГО КАПИТАЛА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВ

Джалилов Гайрат

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В статье определены и оценены возникновение финансовой устойчивости в банках и ее специфические особенности. Исследованы и систематизированы научные изыскания отечественных и зарубежных ученых по данной категории. Проанализированы взгляды ученых на показатели, такие как достаточность капитала и обеспечение ликвидности, в контексте обеспечения финансовой устойчивости. На основе исследований разработаны научные выводы и предложения.

Ключевые слова: устойчивость банков, достаточность капитала, ликвидность, неплатежеспособность, качество активов, рентабельность капитала и активов.

THE IMPORTANCE OF BANK CAPITAL PROFITABILITY IN ENSURING FINANCIAL STABILITY IN BANKS

Djalilov G'ayrat

The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article identifies and evaluates the emergence of financial stability in banks and its specific characteristics. Scientific studies by local and foreign scholars on this category have been examined and systematized. The perspectives of scholars regarding indicators such as capital adequacy and liquidity in ensuring financial stability have been analyzed. Based on the research, scientific conclusions and recommendations have been developed.

Keywords: bank stability, capital adequacy, liquidity, insolvency, asset quality, capital and asset profitability.

Kirish.

Ko'plab adabiyotlarda rentabellikka nisbatan turli yondashuvlar asosida izohlar berib o'tilgan bo'lsada, uning mazmun-mohiyati sarf etilgan har bir birlik mablag' hisobidan olinadigan moliyaviy qaytim darajasini ifodalab beradi. Banklarda rentabellikning ikkita rakursi mavjud bo'lib, kapital va aktivlardan foydalanish samaradorligi darajasini ko'rsatib beradigan ko'rsatkich hisoblanadi. Bu esa, banklarda riskka tortilgan aktivlarning nechog'lik daromad olib kelayotganligini baholashga imkoniyat bersa, boshqa jihatdan bank o'z kapitalidan qanchalik mohirlik bilan foydalanayotganligini ifodalab beradi.

Qayd etish lozim, banklarning kapital samaradorligi makroiqtisodiy siyosatning barqarorligi bilan bevosita bog'lik bo'ladi ekan. Ko'plab xorijiy ilmiy tadqiqotlarda aktivlarning rentabelligi ko'p jihatdan iqtisodiy o'sish bilan kuchli bog'lanishga ega ekanligi o'z isbotini topmoqda. Mamlakatimizdagi tendensiyalarga e'tibor qaratsak bank kapitalining samaradorligi ichki omillarga ko'proq bog'liq bo'layotganligini kuzatamiz. Umuman olganda, banklarning kapitali samaradorligi ham makroiqtisodiy, ham mikroiqtisodiy omillarga bog'liq holda rivojlanadi ekan. Shu boisdan, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aktivlarning samaradorligiga ta'sir etadigan barcha omillarni inobatga olish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotlarimizni davomida bank moliyaviy faoliyati samaradorligini baholashga qaratilgan xorijiy ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan ilmiy xulosalarni o'rganishga e'tibor qaratamiz.

Banklarning kapitali rentabelligi ham muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. ushbu ko'rsatkich bankning o'z mablag'laridan qay darajada samarali foydalana olayotganligini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa, tijorat banklari faoliyatida kapital rentabelligi ko'rsatkichining muhim ekanligini o'zida aks ettirib beradi.

Stenford universiteti professori Allen (2006) Banklarda moliyaviy barqarorlik keng ma'noda iqtisodiy zarbalarga bardosh bera olish, operatsion samaradorlikni saqlash va omonatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlarni bajarish qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Kapitalning rentabelligi, ya'ni kapitaldan daromad (ROE) yoki aktivlardan daromad (ROA) sifatida o'lchanadigan ko'rsatkich, bankning barqaror daromad olish qobiliyatining muhim ko'rsatkichi bo'lib, bu esa o'z navbatida kapital to'planishi va moliyaviy mustahkamlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Pennachi va Santos (2021) tomonidan banklar o'z faoliyati daromadlilikini aniqlash va baholashda nega kapital rentabelligi kategoriyasidan foydalanishlarini tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Ularning tahlillarida banklar 1970 yildan boshlab EPS (Earnings Per Share) ko'rsatkichi o'rniga kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichidan foydalanishni boshlaganliklarini alohida ko'rsatib o'tishadi. Ular tomonidan qat'iy depozit sug'urtasi va raqobat sharoitining kuchayishida kapitalni qanday tanlashlarini tahlil qilishadi. Bu esa, banklarning kapital rentabelligini tanlashga olib kelishi asosida samaradorlikni aniqroq baholashga imkon berishi ajralib turishini ko'rsatib berishadi. Biroq, regulyatorlar tomonidan banklarning barqarorligiga bo'lgan talabning kuchayishi kapital rentabelligi ko'rsatkichidan foydalanish ehtimolini yo'qqa chiqarishi mumkinligini qayd etib o'tishadi.

Karr (2005) tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarda banklarning faoliyatida kapital rentabelligiga suyanishini shubha ostiga oladi. Maroiqtisodiy vaziyatning keskin o'zgarishi va bank kapitaliga bosimning kuchayib borishi uning samarasi kamayishiga olib kelayotganligini ko'rsatib beradi. Uning fikricha, kapital rentabelligining kamchiliklari sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi: uzoq muddatli barqarorlikni ifoda eta omlaydi, mavsumiy ta'sir etuvchi omillar va manipulyasion holatlarni aks ettirib bera olmaydi, stress holatiga nisbatan ijobiy tendensiyalarni ta'minlab bera olmasligi sifatida qayd etib o'tadi. Shu nuqtai nazardan, banklarning moliyaviy barqarorligini RAROC (Risk-Adjusted Return on Capital,

boshqariladigan riskda kapital rentabelligi) ko'rsatkichidan foydalanishni, aktiv va kapitalni sifat ko'rsatkich (masalan, NPL)larini alohida izolashga e'tibor qaratadi. Shuningdek, kapital rentabelligidan tashqari foydadorlik (Return on RWA, tangible equity), samaradorlik (cost-to-income, cost-of-equity), aktiv sifati (NPL), daromad tuzilishi (recurring/volatility) kabi omillarni baholab borishni maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi.


Ta'kidlash lozimki, kapital rentabelligi ayrim xorijiy tadqiqotlarda banklarning barqarorligini ifodalashda asosiy omil bo'la olmas ekan. Bu esa, banklarning kapitali rentabelligi ayrim hollarda to'laonli yuzaga chiqa olmasligini o'zida ifodalab beradi. Bunga sabab sifatida esa, banklarning kapitaliga bosimning ortishi va makroiqtisodiy nobarqarorlik kabilar keltirib o'tiladi. Shu boisdan, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroiqtisodiy vaziyat va axborotlar assimetriyasi muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tiladi.

Umuman olganda, kapital rentabelligi haqiqatmi yoki aksincha ekanligi borasida ham ayrim ilmiy tadqiqotlarni uchratish mumkin. Moussu va Petit-Romes (2014) birgalikda amalga oshirgan tadqiqotda aynan kapital rentabelligining markaziy ko'rsatkich sifatida qanday bo'lishini tahlil qilishadi. Birinchidan, mazkur ko'rsatkich bank sektorining samaradorligini ifodalaydigan asosiy raqam ekanligi, inqirozdan oldingi kapital rentabelligi aksiyalar qiymatiga yolg'onchi ta'sir ko'rsatishini qayd etib o'tadi. Bank rahbariyatining moliyaviy natijalardan bonuslari risk appetiteni oshirishini ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shu boisdan, bank rahbariyati va reguliator tomonidan kapital rentabelligi ko'p e'tibor berib qolmaslikni tavsiya etib o'tadi.

Ozarboyjonlik iqtisodchi olimlar Hasanov Faxri va Huseynovlar (2013) o'z ilmiy ishlarida sobiq sovet davlatlari iqtisodiyotidada kapital rentabelligining valyuta tebranishlari va bozor samarasizligi bilan bog'liq xavflarni kamaytirishdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Rivojlanayotgan bozorlardagi banklar duch keladigan o'ziga xos muammolarni sifatida, bu yerda iqtisodiy o'zgaruvchanlik va tartibga solish tizimlari barqarorlikka rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidan farqli ravishda ta'sir qiladi.

Bizningcha, banklarning kapitali rentabelligi ko'rsatkichi banklarning riskka ekstremal holatda berilib ketishini vujudga keltirishini baholay olmas ekan. Shu nuqtai nazardan, kapital rentabelligini tahlil qilishda simulyasion holatlarni inobatga olib amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, banklarning kapital rentabelligi ham nobarqarorlik kasb etishi makroiqtisodiy holatlarga bog'liq ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, 1-rasmga keltirilgan ma'lumotda Evropa Itifoqi mamlakatlarida 2007-2023 yillardagi kapital rentabelligi tendensiyalari keltirilgan. Ushbu ma'lumotdan ko'radigan bo'lsak, 2008-2009 yildagi moliyaviy inqiroz davrida kapital rentabelligining keskin pasayganligini kuzatamiz. Boshqacha aytganda, 2008-2012 yillarda bank sektori uchun murakkablik kasb etganligini ko'rish mumkin. 2013-2019 yillarda esa, Evropa bank sektorida barqaror o'sish vujudga kelgan. Mazkur muddatda - 1,57 foizdan 5,38 foizga qadar o'sish yuz berganligini ko'rish mumkin. biroq 2020 yildagi pandemiyaning vujudga kelishi bank sektori kapital samaradorligini pasayishiga olib kelganligini kuzatamiz. Shunday bo'lsada, pandemiya keyingi davrda bank kapitali rentabelligi 2021-2023 yillarda 2,31 foizdan 9,29 foizga qadar o'sishga erishganligini ko'ramiz (1-rasmga qarang).



1-rasm. 2007-2023 yillarda Evropa Ittifoqi bank sektorida kapital rentabelligi ko'rsatkichi [4]

Bizningcha, Yevropa Ittifoqining tajribasida ham bank sektori kapitali rentabelligi makroiqtisodiy vaziyat bilan bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa, banklarning moliyaviy barqarorligi tashqi omillarga nisbatan sezuvchanligi yuqori bo'lishini o'zida aks ettirib bermoqda. Shu boisdan, bank boshqaruvidan banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makro va mikroiqtisodiy tendensiyalarni inobatga olish muhim ekanligini o'zida ifodalab beradi.

Gap shundaki, banklarning kapitali rentabelligini boshqarishda bankning aksidorlari va boshqaruvchining risk appetiti uyg'unlashib borishi bank nobarqarorligini kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Alxadab va bassam Al-Ovn (2017) birgalikda amalga oshirgan tadqiqotda Evropa banklarining 2001-2015 yillardagi faoliyatini qamrab olgan holda kapital rentabelligini boshqaruvi holatini tahlil qiladi. bunda, ixtiriy kredit riski yo'qotishlari uchun zaxira diskresiyalari ko'rsatkichining ta'siri qisqa va uzoq muddat uchun baholanadi. Kredit riski zaxirasi oshishi rentabellikni pasaytirishga olib kelishini asoslab berishadi. E'tiborli jihati ushbu ko'rsatkichning ta'siri besh yilga qadar saqlanib qolishi natijasida kapital rentabelligi bosim ostida qolishini keltirib o'tadi.

Moussu va Petit-Romesning (2017) birgalikda yana bir ilmiy izlanishlarida inqiroz davrida kapital rentabelligi samaradorlik belgisimi yoki o'lchov birligimi degan savolga javob berishga harakat qilishadi. Katta banklardagi kapital rentabelligi yuqori bo'lish bilan birga, inqirozda ham kattaroq yo'qotishlarga olib kelgan. Ularning fikricha, kapital rentabelligi samaradorlik belgisi bo'lish bilan birga, risk o'lchovi ham bo'ladi ekan, ayniqsa inqiroz davrida. Bank boshqaruvi va aksionerlarning risk appetitini oshirishga olib kelishi bilan risklarni boshqarishga imkon berishi mumkinligini ham ta'kidlab o'tishadi.

Xulosa va takliflar.

Banklarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kapital rentabelligi bankning barqaror daromad olish qobiliyatini ta'minlaydi, bu esa kapital zaxiralarini ko'paytirish, iqtisodiy zarbalarga qarshi turish va likvidlikni saqlash imkonini beradi. Umumiy xulosa qilib aytganda, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bank kapitali va aktivi samaradorligi muhim ahamiyatga ega ekan. Bunda bank faoliyatining moliyaviy ko'rsatkichlarini inobatga olish bilan birga, makroiqtisodiy barqarorlikni ham tahlil qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi ekan. Shu boisdan, banklarning moliyaviy barqarorligi kapital rentabelligi ortgan paytd aktivlarning riskka tortilganlik darajasining ortib ketishini oldini olishga qaratilgan moliyaviy muvozanatni ta'minlashni nazarda tutadi. bank kapitali rentabelligi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. U nafaqat bankning moliyaviy mustahkamligini oshiradi, balki investorlar va omonatchilar ishonchini mustahkamlab, bozor o'zgaruvchanligiga qarshi turish qobiliyatini yaxshilaydi. Shu sababli, banklar risklarni boshqarish va aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish orqali kapital rentabelligini oshirishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Alhadab M. M. et al. (2017) *Earnings management and banks performance: Evidence from Europe* //International Journal of Academic Research in Accounting, Finance and Management Sciences. – T. 7. – №. 4. – S. 134-145.

Allen, W. A., & Wood, G. (2006). *Defining and Achieving Financial Stability*. Journal of Financial Stability, 2, 152-172. <https://doi.org/10.1016/j.jfs.2005.10.001>

Hasanov, Fakhri & Huseynov, Fariz, (2013). "Bank credits and non-oil economic growth: Evidence from Azerbaijan," *International Review of Economics & Finance*, Elsevier, vol. 27(C), pages 597-610.

Karr J. (2005) *Performance Measurement in Banking: Beyond ROE* //Journal of Performance Management. – T. 18. – №. 3.

Moussu C., Petit-Romec A. (2014) *RoE in banks: myth and reality* //Available at SSRN 2374068.

Moussu C., Petit-Romec A. (2017) *ROE in banks: Performance or risk measure? Evidence from financial crises* //Finance. – T. 38. – №. 2. – S. 95-133.

Pennacchi G. G., Santos J. A. C. (2021) *Why do banks target ROE?* //Journal of Financial Stability. – T. 54. – S. 100856.

ROE of the EU banking industry 2007-2023. <https://www.statista.com/statistics/1259170/roe-eu-banking-industry/>